Transformasiya tajribasi natijalarni 7.4-jadvalga yoziladi.

3.4. Magnit zanjiridagi nuqsonlarni va podshipniklar tizimi holatini aniqlash uchun salt ish tajribasi oʻtkaziladi. Bu tajriba quyidagi tartibda oʻtkaziladi:

- podshipniklar moylanganligi tekshiriladi;
- rotor chulgʻami chikishlari tutashtiriladi;
- stator chulgʻamiga induksion regulyator yordamida nominal kuchlanish berilib, motorning salt ish rejimida 15 minut ushlab turiladi;
- podshipniklarni qizishi tekshirilib boriladi;
- rotorning aylanish davrida oʻqning qochishi aniqlanadi;
- nominal liniya kuchlanishlarida stator chulgʻamlaridagi toklar miqdori, quvvat va aylanishlar chastotasi aniqlanadi.

Tajriba natijalari 7.5-jadvalga yoziladi.

3.5. Taʼmirlashdan keyingi qisqa tutashishlar tajribasi stator va rotor chulgʻamlari tok zanjirlari holatini baholash uchun oʻtkaziladi.

Qisqa tutash tajribasi rotorning tormozlangan holatida va chulgʻamning tutashtirilgan holatida quyidagi tartibda bajariladi:

- sinalayotgan motorning rotori tormozlanadi;
- induksion regulyator chiqishida motor chulgʻamlarida nominal tok boʻlishi uchun etarli boʻlgan kuchlanishning qiymati oʻrnatiladi;
- induksion regulyator yordamida stator chulgʻamiga kuchlanish beriladi va uni stator chulgʻami nominal toki miqdorigacha oshirilib boriladi.

Ish natijalari 7.6-jadvalga yozib boriladi.

Salt ishlash va qisqa tutash tajribalari natijalari boʻyicha motorning FIK taqribiy qiymatlari topiladi:

$$\eta = R_n / (\Delta P_{c.h} + \Delta P_{\kappa\tau} + R_n),$$

bu yerda R_n - motorning nominal quvvati, kVt;

$\Delta P_{cc.ii}$ - salt ishlashdagi quvvat isrofi, kVt;

ΔP_{KTH} - qisqa tutashishdagi quvvat isrofi, kVt;

3.6. Korpus izolatsiyasi elektrik mustahkamligini sinash GOST 7217-79 bo'yicha quyidagi tartibda o'tkaziladi:

- kuchlanish regulyatori yordamida korpus izolasiyasini sinash sxemasi yigʻiladi. Sinash kuchlanishini oʻlchash transformatorining yuqori kuchlanishli chulgʻamlarida olib beriladi;


- kuchlanish regulyatori holati kuchlanishning quyi qiymati miqdoriga mos ravishda oʻrnatiladi;

- sxema qo‘shiladi va kuchlanish regulyatori yordamida kuchlanishning kerakli qiymati beriladi, hamda 1 minut davomida ushlab turiladi. Kuchlanish asta-sekin pasaytirilib, sinov qurilmasi tarmokdan o‘chiriladi.

Agar korpus izolyasiyasi teshilmasa, izolasiya sinovga chidamli deb hisoblanadi.

Kuchlanish 500V gacha bo'lgan elektr motorlarning sinov kuchlanishi quyidagicha bo'ladi:

$$U_{\text{cin}} = 2 U_n + 1000, \quad t = 1 \text{ min.}$$



7.1-rasm. Induksion usulida uch fazali chulgʻamlar chiqishlari markirovkasini aniqlash sxemasi.

7.1-jadval

Stator						Rotor
$R_{iz\ AB}, \Omega$	$R_{iz\ BC}, \Omega$	$R_{iz\ CA}, \Omega$	$R_{iz\ AK}, \Omega$	$R_{iz\ BK}, \Omega$	$R_{iz\ CK}, \Omega$	$R_{iz\ chul}, \Omega$

7.2-jadval

Faza	Stator				Rotor			
	U, V	I, A	r_{ur}, Ω	r_f, Ω	U, V	I, A	$g_{o'r}, \Omega$	g_f, Ω
A								
B								
C								

7.3-jadval

Stator						Rotor				k_r
I_A, A	I_B, A	I_C, A	U_{AB}, V	U_{BC}, V	U_{CA}, V	U_{AB}, V	U_{BC}, V	U_{CA}, V		

7.4-jadval

Stator				Rotor	Ishga yaroqliligi haqida xulosa
I_A, A	I_B, A	I_C, A	U_{ls}, V	U_r, V	

7.5-jadval

U_{AB}, V	U_{BC}, V	U_{CA}, V	I_A, A	I_B, A	I_C, A	$\Delta R_{sn}, V_t$	n, min^{-1}

I_{qt}, A	U_{qt}, V	$\Delta P_{qt}, Vt$	Izoh

Tekshirish uchun savollar.

1. Faza rotorli asinxron motorning ta'mirlashdan keyingi nazorat sinovini tushuntirib bering?
2. Chulg'amlar chiqishlari markirovkasini aniqlash qanday usulda amalga oshiriladi?
3. Chulg'am qarshiligini o'zgarmas tok bo'yicha o'lchamida qanday nuqson aniqlanadi?
4. O'ramlar izolatsiyasini sinash tajribasi haqida tushuncha bering?
5. Salt ishlash tajribasi nima?
6. Qisqa tutashish tajribasining maqsadi nimalardan iborat?

8-laboratoriya ishi.

TRAKTOR O'ZGARUVCHAN TOK GENERATORINING NUQSONLARINI TEKSHIRISH

Ishning maqsadi: Traktor o'zgaruvchan tok generatorini qismlarga ajratish va ularning detallari axvolini tekshirish.


Ish dasturi.

1. O'zgaruvchan tok generatori tuzilishini o'rganish va qismlarga ajratish.
2. Generator detallarini ko'zdan kechirish va mexanik nuqsonlari bor- yo'qligini aniqlash.
3. Rotorning uyg'otish chulg'ami xolatini tekshirish.
4. Stator chulg'amida uchraydigan nuqsonlarni aniqlash.
5. To'g'rilagich bloki diodlarining ishga yaroqliligini tekshirish.

Ishni bajarish tartibi

1. O'zgaruvchan tok generatori tuzilishi bilan tanishiladi. (8.1,a-rasm) va quyidagi tartibga amal qilgan holda u qismlarga ajratiladi:

- stopor shaybasi 13 ni maxsus moslama (eging) va qisma yordamida shkiv 12 ni rotor 8 bilan birga aylanishdan tutib turib, rotor vali uchidan gayka 14 ni burab chiqaring, ajratgich yordamida esa rotor validan ventilyator bilan birga yig'ilgan shkivni presslab chiqaring. Val ariqchasidan shponkani chiqarib oling;
- chiqish klemmalari boltlaridan gaykalarni burab chiqaring;
- orqangi qopqoq 6 dan uchta vintni burab chiqaring va rostlagich (IKR) qopqog'i 5 ni oling;
- orqangi qopqoqqa joylashgan barcha simlarni qismalardan uzing;
- taranglash shpilkalari 15 gaykalarini burab chiqaring, so'ngra orqangi qopqoq 6 ni bolta bilan yog'och qo'yma orqali sekin-sekin o'rib chiqarib oling;
- taranglash shpilkalari 15 ni old qopqoq 10 teshiklaridan chiqarib, stator 7 ni oling;
- avval to'g'irlash bloki va qopqoqning mahkamlash boltlari hamda vintlarini burab olib, to'g'irlash bloki 11 ni, keyin old qopqoq 10 va qoplamasi 9 ni uyg'otish chulg'ami bilan birga oling. Qopqoqni val uchini kuch bilan qopqoq panjasiga tiragan holda ajratgich yordamida chiqarib oling.



8.1-rasm. 13.3701 tipidagi traktor o'zgaruvchan tok generatorining umumiy ko'rinishi (a) va elektr sxemasi (b): 1 – panja; 2 – rostlagich bloki; 3 – chiqish B; 4 – chiqish D; 5 – rostlagich qopqog'i; 6 – orqangi qopqoq; 7 – stator; 8 – rotor; 9 – uyg'otish g'altaginnng qoplamasi; 10 – old qopqoq; 11 – to'g'rilagich bloki; 12 – shkiv; 13 – shayba; 14 – gayka; 15 – taranglash shpilkasi; 16 – bolt.

2. Generator detallarini koʻzdan kechiring. Val uchlaridagi rezbaning ezilgan va shikastlanganligi, kontakt halqalari kuyganligi va ular diametri boʻylab yoyilganligi, rotor yarmosiniig va kontakt halqalarining val boʻyicha siljiganligi, rotor yarmosining tebranishi va sharikli podshipniklar ostidagi val boʻyinlarining yoyilganligini aniqlang.

Rotor valining uchlaridagi rezbaning ahvolini tekshirish uchun tegishli oʻlchamli yangi gaykani ishlatish mumkin. U rotor valining uchiga (zazorsiz) buralishi lozim.

Kuygan kontakt halqalarni donadorliga kamida 80 boʻlgan shisha qogʻoz bilan ishqalab tozalang.

Rotor yarmosi va kontakt halqalarning val boʻyicha siljishini oʻlchang. Rotor oʻng yarmoning tores sirti bilan qirqma halqaning oʻng tores sirti orasidagi masofa 10,4... 11,0 mm boʻlishi kerak. Rotor yarmosining tebranishini uni qoʻl bilan aylantirib koʻrib aniqlang. Sharikli podshipniklar orasidagi val boʻyinlarining qancha yoyilganini oʻlchang.

Yoyilish oqibatida generatorlarni mahkamlash quloqchalarining teshiklari, sharikli podshipniklar ostidagi uyalar kattalashishi, shuningdek darzlar va shu kabilar paydo boʻlishi mumkin. Shkiv darz ketishi shponka pazi va oʻtkazish teshigi gʻildirash yoʻlakchasi yoyilishi mumkin. Korpusda chakalanish hamda korpusning yoʻnaltiruvchi boʻrtigʻida va qutblarda timalishlar boʻlishi mumkin.

Ventilyatorda quyidagi kamchiliklar - kurakchalar darz ketishi yoki sinib tushishi mumkin. Choʻtka tutkich va choʻtkalar quyidagi nuqsonlarga eta: choʻtka tutgich darz ketadi yoki sinib tushadi, choʻtkalar eyiladi, choʻtka prujinalari choʻziluvchanligini yoʻqotadi.


Choʻtkalarning yeyilishi ularning boʻyini shtangensirkul bilan oʻlchab aniqlanadi. Barcha oʻzgaruvchan tok generatorlari uchun choʻtkaning nominal boʻyi 15 mm, yoʻl qoʻyilgan darajadagisi kamida 8 mm.

3. Rotorning uygʻotish chulgʻami ahvolini tekshiring. Ularda uzilgan joylar, oʻramlararo tutashish va «massa»ga tutashish yoʻqligini aniqlang. Uygʻotish chulgʻamida nchki uzilishlar borligini aniqlash uchun uni 12 V li kontrol lampaga parallel va shunday kuchlanishli tok manbaiga ulang. Agar lampa engsa, ichki uzilishlar yoʻq, oʻchsa, bor boʻladi.

Uygʻotish chulgʻamida oʻramlararo tutashish borligini taqqoslash usuli bilan aniqlanishi mumkin (8.2-rasm).

Bu usulda zanjirga tekshiriluvchn tuzuk kutb gʻaltaklarining qarshiliga teng qarshilikli kontrol chulgʻamni tekshiriluvchi qutb gʻaltaklari bilan ketma-ket ulash kerak.

Agar tekshiriluvchi qutb gʻaltaklari shikastlanmagan boʻlsa, uning chiqish simlaridagi kuchlanish kontrol chulgʻamdagi kuchlanishga teng boʻladi. Tekshiriluvchi qutb gʻaltaklarining chiqish simlaridagi kuchlanish kontrol chulgʻamidagi kuchlanishga nisbatan kam boʻlishi ularning oʻramlari orasida tutashish mavjudligini bildiradi.



8.2-rasm. Qutb g'altaklari o'ramlari orasidagi tutashishlarni taqqoslash usuli bilan tekshrish:

1 – reostat; 2 – tekshiriluvchi generatorning qutb g'altaklari;
3 – kontrol chulg'am.

12 V kuchlanishli kontrol lampa yordamida uyg'otish chulg'aming "massa" ga tutashishni aniqlang. Buning uchun 12 V kuchlanishga mo'ljalangan tok manbai klemmlaridan birini rotor valiga, ikkinchi klemmani kontrol lampa shchuplaridan biriga ulang. Kontrol lampaning ikkinchi shchupini navbati bilan kontakt halqalariga tekkizing. Lampaning yonishi uyg'otish chulg'aming shikastlanganini va rotor "massa"sig a ulanib qolganligini bildiradi. SHikastlangan uyg'otish chulg'ami tuzatilmaydi, rotor yaroqsizga chiqariladi.

4. Stator chulg'amida uchrashi mumkin bo'lgan nuqsonlar quyidagilardan iborat: tashqi izolyasiya shikastlanadi, birikmalarda uzilishlar, ichki uzilishlar va o'ramlararo tutashishlar sodir bo'ladi.

Har bir fazani 12V kuchlanishli tok manbaiga kontrol lampa orqali ketma-ket ulab, birikmalardagi uzilishlarni va g'altaklardagi ichki uzilishlarini aniqlang. Agar uzilishlar bo'lmasa, lampa yonadi.


KI-959 portativ defektoskopi yordamida g'altak o'ramlari orasidagi tutashlarni aniqlang. Uni shunday o'rnatinki, paz tekshiriluvchi chulg'am bilan birga qabul qilish – signal va indukson apparatlar o'zaklarning havo zazori orasida bo'lsin. Stator g'altaklarida o'ramlararo tutashishlar bo'lsa, neon lampa yonadi.

5.Qismlarga ajratilgan generatorda stator chulg'ami uzib qo'yilgan paytda to'g'rilash bloki diodlarining tuzukligini tekshiring. Tekshirish uchun 12V kuchlanishli o'zgarmas

tok manbaiga ega bo'lgan traktor lampasining tekshiriluvchi diod bilan zanjirga ketma ket ulang.

«+» ga kavsharlangan diodlarich 8.3,a-rasmda tasvirlangan sxema bo'yicha tekshiring.

O'tishdagi uzilishni va diodlardagi qisqa tutashishni tekshirish uchun sim A to'g'rilagich «+» ga ulanadi, sim S ni esa navbati bilan qismlar 5 ga tekkizib chiqiladi. Kontrol lampa, diod o'tishi soz bo'lganda yonadi, uzilganda yonmaydi.



8.3-rasm. To'g'rilagich bloki diodlarini tekshirish sxemasi: a - shina «+» ga kavsharlangan; b - shina «-» ga kavsharlangan;

1 – shina «+»; 2 - shina «-»; 3 - shina «+» ga kavsharlangan diodlar chiqishlari; 4 - shina «-» ga kavsharlangan diodlar chiqishlari; 5 – qismalar

Diodlarda qisqa tutashish bor-yo'qligini tekshirish uchun simlarni punktir bilan ko'rsatilgandek ulang. Sim K ni qismalar 5 ga navbati bilan tekkizib chiqib, lampani kuzating. Agar lampa yonsa, tekshiriluvchi diodda qisqa tutashish bor, yonmasa, diod soz xisoblanadi. «-» ga kavsharlangan diodlarni ham xuddi shu yo'sinda tekshiring (8.3,b-rasm).

Ish natijalari nuqsonlar kartasiga to'ldiriladi (kartaga qarang).

NUQSONLAR (DEFEKTASION) KARTASI № _____

1. Traktor o'zgaruvchan tok generatorining mexanika qismi holati. Ta'mirlanish raqami № _____

1.1. Stator korpusi: _____
(nuqsonlari ko'rsatiladi va bartaraf etish usullari)

1.2. Rotor vali: _____

1.3. Kontakt halqalari: _____

1.4. Havo zazori: _____

1.5. Podshipniklar holati: _____

1.6. Ventilyator: _____

1.7. Cho'tkalarining holati: _____

1.8. Qopqoqlar holati: _____

1.9. Uyg'otish g'altagining vtulkasi: _____

1.10. Gayka, shayba, boltlarning holati: _____

1.11. _____

2. O'zgaruvchan tok generatorining elektr qismlari holati.

Nominal kuchlanishi _____ V; Quvvati _____ Vt;
Nominal tok kuchi _____ A; Nominal aylanish chastotasi _____ min⁻¹;
Shkivsiz massasi _____ kg
Tayyorlangan zavod _____
Ishlab chikilgan yili _____

Ta'mirlashga qabul qilingan kuni « ____ » _____ 20__ y.

2.1. Rotorning uyg'otish chug'ami. Chulg'am turi _____;

Simning turi va o'lchamlari _____;

Uyg'otish chulg'amlar ahvoli: _____
(nuqsonlar ko'rsatiladi va bartaraf etish usullari)

2.2. Stator chulg'ami. Chulg'am turi _____;
G'altaklar son _____; Simning turi va o'lchamlari _____

Stator chulg'aming
Stator chulg'aming axvoli: _____

2.3. T o'g'rilagich bloki diodlari. Diodlar turi _____;
Diodlar soni _____ dona.
Diodlarning axvoli: _____

2.4. _____

Tuzuvchi: _____ Tasdiqlovchi: _____

« ____ » _____ 20__ y. « ____ » _____ 20__ y.

9-laboratoriya ishi.

LYUMINESSENT LAMPALAR VA ISHGA TUSHIRISH JIHOZLARINING NUQSONLARINI TEKSHIRISH

Ishning maqsadi. Lyuminescent lampalar, drossellar va startyorlarning nuqsonlarini o'rganish.

Ish dasturi.

1. Lyuminescent lampalar nuqsonlarini aniqlash ko'rgazmasining elektr sxemasi bilan tanishish.

2. Lampalar, drossel va startyorlarda uchraydigan asosiy nuqsonliklar bilan tanishish va ularni bartaraf etish yo'llarini o'rganish.

Umumiy ma'lumotlar.

Lampalarni ekspluatatsiya qilishda har xil nuqsonliklar uchraydi, ularni aniqlash va bartaraf qilishni bilish asosiy muammolardan biridir. Lampalarni ishga tushirishda ko'pincha quyidagi nuqsonliklari uchrab turadi:

1. Yangi lampaning yonmasligini sababi shundan iboratki patron kontaktlari yaxshi emasligi, simlarda va elektrodalarda uzilish borligi, lampa ichiga havo kirganligidir;

2. Yangi lampa miltillaydi, lekin yonmaydi. Bu holda lampani bir necha marotaba yoqib, o'chirish kerak. Agar miltillash davom etaversa, u holda startyorlarni almashtirish kerak;

3. Lampa trubkasi oxirlaridan 50-70 mm uzunlikda qorayish seziladi. Bu lampaning ishlash muddati tugayotganini bildiradi

4. Lampa trubkasi oxirlari yorishishining, lekin lampani yoqilmasligining sababi, startyorda nuqsonlik borligi yoki kondensatorda qisqa tutashish mavjudligidandir;

5. Drossel kuchli g'uvillaganda drosselni prokladkabop rezina orqali qotirish kerak;

6. Drossel o'ta qiziydi sababi; plastina izolasiyasi yomonligidir. Bunday vaqtda drosselni almashtirish kerak;

7. Elektrodلarning kuyib qolishining sababi, patronلarning sinib qolishi, simlardagi qisqa tutashuvlaridir.

Ishni bajarish tartibi.

1. 9.1-rasm bo'yicha sxema tuziladi va o'qituvchiga ko'rsatiladi..

2. SF qo'shilib, laboratoriya avtotransformatori yordamida kerakli kuchlanish o'rnatiladi.

3. Lampa nuqsonlarini tekshirish quyidagicha amalga oshiriladi:

- SA uzgich 3 holatiga quyiladi;
- SB 5 bosqich (knopka) bosiladi, bosqich qo'yib yuborilganda lampa yonishi kerak;

Lampa toki va kuchlanishi qiymatlari RA1 va RU2 orqali yozib boriladi va 9.1-jadvalga tushiriladi. Tok va kuchlanish ko'rsatgichlarini standart qiymatlari bilan farqi 10...12% dan oshmasligi kerak;

Agar bosqichni bosganda elektrodlar yorishmasa, u holda qaysi elektrodda nuqson borligini aniqlash uchun SV2 bosqich bosilib, tekshirilib ko'riladi;

Agar elektrodlar butun bo'lib, lampa yonmasa, u holda 4 mkF li S2 sig'imi orqali ishga tushiriladi. Buning uchun SV5 bosqichni quyib yuborilmagan holatda SV4 bosqich bosiladi. Lampada tug'rilash effektinn aniklash uchun SV3 bosqich bosiladi, agar RA2 ampermetr RA1 ampermetr kursatishining 25 – 30% ni ko'rsatsa, u holda lampa ishga yaroqsiz hisoblanadi;

Agar lampa soz bo'lsa, lampa SV5 bosqich orqali ishga tushiriladi, bunda RU1 ning 198...200 V ga o'rnatilgan bo'lishi kerak.


4. Drossel nuqsonlarini aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- drossel XGZ va XG4 qismlariga ulanadi;
- uzgich SA1 holatga o'rnatiladi;
- qisqa tutashish bor-yo'qligin tekshiriladi, bunda NL4 lampaning chug'lanishi normal bo'lishi kerak;
- qisqa tutashish toklarining ko'rsatgichi yozib olinadi va 9.2-jadvaldagi qiymatlari bilan taqqoslanadi.

5. Startyorlarni tekshirish uchun uni XG1 va XG2 qismlarga ulanadi; soz startyorda uni qo'shish paytida och qizil gaz razryadi hosil bo'ladi va 1...3 sekund oralig'ida yo'qoladi. Bu paytda 15-20 Vt li NLZ lampa yonadi. Keyinchalik bu jarayon qaytarilib, lampa yonib o'chib turadi. Agar lampa NLZ yonmasa yoki yonsayu, lekin yonib o'chib turmasa, bunday startyor ishga yaroqsiz hisoblanadi va yangisiga almashtiriladi.

Tekshirish uchun savollar.

1. Lyumenessent lampalarda uchraydigan nuqsonlarni aytib bering?
2. Droselni tekshirish tartibini gapirib bering?
3. Startyor, drosel va lampalar qanday hollarda ishga yaroqsiz hisoblanadi?



9.1-rasm. Lyuminessent lampalarning nuqsonlarini aniqlash stendining elektr sxemasi.

9.1-jadval

Lyuminescent lampalar va drossellarni tekshirish natijalari

Jihozning nomi va markasi	Quvvat P, kVt	Kuchlanish U, V		Tok I, A		Qisqa tutashish toki I_{kt} , A		Xulosa
		stand.	tajr.	stand.	tajr.	stand.	tajr.	

9.2-jadval

Ballast drossellarining tavsifi

Drosseliing markasi	Quvvat, kVt	Kuchlanish, V	Tok, A	Sig'im S, mkF		Qisqa tutashish toki, A
				Kompensatsiya uchun	Ketma-ket ulash uchun	
TUBI-20/127- VPP-900, 910	20	127	0,37	6-8	6	0,6
TUBI/E/-40/220- VPP-800 UXL 4	40	220	0,43	4-6	4	0,6

10-laboratoriya ishi.

PAST KUCHLANISHLI ELEKTR APPARATLARINING NUQSONLARINI O'RGANISH VA G'ALTAK CHULG'AMLARINI QAYTA HISOBLASH

Ishning maqsadi: Kontaktorlar va magnitli ishga tushirgichlarning ta'mirlash jarayonlarini va kuygan g'altaklari chulg'amlarini qayta hisoblashni o'rganish.

Ish dasturi.

1. Kontaktorlar va magnitli ishga tushirgichlarning ta'mirlash texnologiyasini o'rganish.
2. Kontaktorlar va magnitli ishga tushirgichlar asosiy kontaktlarning boshlang'ich va oxirgi bosish kuchi kattaliklarini tekshirish.
3. Kontaktor va magnitli ishga tushirgichlar kuygan g'altak chulg'amlarini qayta hisoblashni o'rganish.
4. G'altakni bir nominal kuchlanishdan boshqa kuchlanishga qayta hisoblashni o'rganish.

Ishni bajarish tartibi.

1. Kontaktorlar va magnitli ishga tushirgichlarning qo'llanilish maqsadlari o'rganiladi, tashqi ko'rikdan o'tkazilib, qismlarga ajratiladi, hamda detallarning nuqsonliklari aniqlanadi. Ularni ta'mirlash ketma-ketligi 10.1-jadval asosida olib boriladi.

2. Kontaktor yoki magnitli ishga tushirgichlar asosiy kontaktlarning boshlang'ich va oxirgi bosish kuchi kattaliklari tekshiiladi. Kontaktlarning bosish darajasi (10.1 rasm) ikki holatda tekshiriladi: ular ajratilganda (boshlang'ich bosish) va tutashganda (oxirgi bosish).

Birinchi holatda qo'zg'aluvchan kontak bilan uning tayanch orasiga yupqa qog'oz tasma yoki folga yoki qo'yiladi (10.1,a-rasm). Qo'zg'aluvchan kontakti orqaga tortib dinamometr yordamida qay darajadagi kuch bilan tasma erkin chiqarib olinishi aniqlanadi. Dinamometrning ana shu ondagi ko'rsatishi kontakning "boshlang'ich" bosish kuchiga to'g'ri keladi. Ikkinchi holatda (10.1,b-rasm) tasma tutashgan holatdagi asosiy qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan kontaktlar orasiga qo'yiladi. Qo'zg'aluvchan

kontakti orqaga tortib qog'oz tasmani erkin chiqarib olish uchun zarur bo'lgan kuch dinamometr yordamida aniqlanadi. Bu kuch kontaktning oxirgi bosilishi deyiladi. O'lchash to'g'ri bajarilishi uchun dinamo metrnining bosish yo'nalishi kontaktlarning tutashish tekisligiga qat'iy perpendikulyar bo'lishi kerak.

Ish natijalari 10.2-jadvalga to'ldiriladi.

3. Kontaktor va magnitli ishga tushirgichlar kuygan g'altak cho'lg'amlarining pasport ko'rsatkichlari bo'lmagan va o'ramlar soni kamda simning diametri yo'qolgan bo'lganda chulg'am qayta hisoblanadi.

Kuygan g'altakning o'ramlar soni p quyidagicha aniqlanadi

$$p = (135 - G) / (d^3 - 1), \quad (10.1)$$

bu yerda G - g'altakning massasi, kg; $G = G_s + G_{iz}$;

d - simning diametri, mm;

L - o'ramning o'rtacha uzunligi, m; $L_b = \pi * (D_1 + D_2) / 2$

D_1 va D_2 - g'altakning tashqi va ichki diametrlari, m.

Izolyasiyaning massasi G_{iz} umumiy massaning 5% iga teng deb qabul qilinadi.

Simning diametrini aniqlash uchun quyidagi ifodadan foydalaniladi:

$$D \approx 1,3 * \sqrt[4]{G / R}, \quad (10.2)$$

bu yerda R - o'zgarmas tok bo'yicha om qarshiligi, Om.

4. G'altakni bir nominal kuchlanish ($U_1 = 220V$) dan boshqa kuchlanish ($U_2 = 380V$) ga qayta xisoblash amalga oshiriladi. Qayta hisoblash quyidagicha olib boriladi.

a) G'altak o'ramlari sonining yangi kuchlanish ($U_2 = 380V$) ga qayta hisoblash:

$$n_2 = n_1 * (U_2 / U_1), \quad (10.3)$$

bu yerda n_1 - $U_1 = 220V$ kuchlanishli g'altakning o'ramlar soni;

U_2 - yangi kuchlanish, $U_2 = 380V$.

b) Izolyasiyalangan simning hisobiy diametri:

$$D_2^1 = D_1^1 * \sqrt{n_1 / n_2}, \quad (10.4)$$

bu yerda D_1^1 - $U_1 = 220V$ kuchlanishli g'altak cho'lg'aming diametri, mm.

D_2^1 ning olingan qiymati standart (jadval) qiymati bilan solishtiriladi va unga mos ochiq simning diametri d_2 topiladi.

v) Yangi chulg'amning qarshiligi R_2 quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:


$$R_2 = R_1 * (n_2 * d_1^2) / (n_1 * d_2^2) \quad (10.5)$$

bu yerda $R_1 - U_1 = 220V$ kuchlanishga mo'ljallangan g'altak chulg'aming qarshiligi, Om, g'altakning o'lchamlarini hisoblash paytida o'zgarishsiz qoladi. Ish natijalari bo'yicha xulosa qilinadi.

10.1- jadval.

Kontaktorlar va magnitli ishga tushirgichlarni remont qilish ketma-ketligi

Elektr jihozlarining nomi va tashqi holati	Qismlarniig holati va ta'mirlash operatsiyasi
1	2
g	Asosiy kontaktlar:
	(nuqsonlarini ta'mirlash operatsiyasi o'rnatilsin)
	Egiluvchan birikmalar:
	Qisqa tutashtirilgan o'ram:
	-
	Magnit sistemasi:
	Yoy so'ndirish sistemasi:
	Kontakt prujinalari:
	G'altak va uning cho'lg'ami:



10.1-rasm. Kontaktlarining bosilish darajasini o'lash sxemasi.

10.2-jadval

Tipi	Kontaktlarning olishlashuvi, mm		Orqaga qaytishi, mm		Ajratilganda boshlangich bosish kuchi, N		Tutashgandagi oxirgi bosilish kuchi, N		Xulosa
	Ulch.	Jadv.	Ulch.	Jadv.	Ulch.	Jadv.	Ulch.	Jadv.	

Tekshirish uchun savollar.

1. Past kuchlanishli elektr apparatlarining tez ishdan chiqishiga nimalar sabab bo'ladi?
2. Kontaktorlar va magnitli ishga tushirgichlarning ishlatilish vazifalari va ularda uchraydigan asosiy nuqsonliklar nimalardan iborat?
3. Kontaktorlar va ishga tushirgichlar uchun kontaktlarning olishlashuvi va orqaga qaytish tushunchalarini qanday tushunasiz?
4. Kuygan g'altak chulg'amlari ko'rsatkichlarini qayta tiklash texnologiyasini gapirib bering?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Pyastolov A.A., Eroshenko G.P. Eksploatatsiya elektrooborudovaniya. – M.: Agropromizdat, 1999. – 287 s.
2. Praktikum po texnologii montaja i remonta elektrooborudovaniya. Pod. red. A.A.Pyastolova. – M.: Agropromizdat, 1999.- 160 s.
3. Eksploatatsiya elektrooborudovaniya / G.P.Eroshenko, A.P.Kolomiets, YU.A.Medvedko, M.A.Taranov. – M.: KolosS, 2013. – 344 s. – (Uchebnik dlya studentov vissh. ucheb. zavedeniy).
4. Raxmatov A.D., Isakov A.J., Bayzakov T.M., Yunusov R.F. Elektr uskunarlar eksploatatsiyasi va ta'mirlash. Darslik. – T.: TIMI, 2014. – 200 b.
5. [David Herres](#). Troubleshooting and repairing commercial electrical equipment. 4t edition. McGraw-Hill Companies. USA., 2009. – 684 r.
6. William A. Chisholm, Electrical Design of Overhead Power Transmission Lines. New York, Chicago, San Francisco, 2013. – 368 r.
7. Ibroximov U. Elektr mashinalari. – T.: O'qituvchi, 1988. – 372 b.
8. Majidov S. Elektrik mashinalar va elektrik yuritmalar. – T.: O'qituvchi, 1979. – 366 b.
9. Majidov S. va boshq. Elektr mashina va eiektir yuritmalardan praktikum. – T.: O'qituvchi, 2005. – 176 b.
10. Kokorev A.S. Spravochnik molodogo obmotchika elektricheskix mashin. – M.: Vissh. shk., 1985. – 288 s.
11. Kokorev A.S. Elektr mashinalarni remont qiluvchi elektr slesar. – T.: O'qituvchi, 1990. – 192 b.
12. Semyonov V.A. Sanoat korxonalari elektr jixozlarini remont qiluvchi yoki elektromontyorlar uchun spravochnik. – T.: O'qituvchi, 1988. – 240 b.
13. Asinxronnie elektrodvigateli serii 4A: Spravochnik / A.E.Kravchik, M.M.Shlaf, V.I.Afonin, E.A.Sobolen. – M.: Energoatomizdat, 1982. – 504 s.
14. Tembel G.V., Gerashenko G.V. Spravochnik po obmotochnim dannim elektricheskix mashin i apparatov. – Kiev: Texnika, 1981. – 480 s.
15. Asinxronnie elektricheskije motori obshepromishlennogo naznacheniya. Texnicheskiy katalog. Vladimirskiy elektromotorniy zavod. CHast 1. – M.: VEMZ-Treyding, 2003. – 62 s.

16. Goligin A.F., Ilyashenko L.A. Sanoat korxonalari elektr jihozlarining tuzilishi va ularga xizmat ko'rsatish. – T.: O'qituvchi, 1990. – 216 b.
17. Kolesov L.V., Karpov V.N., Kosouxov F.D., Merkurev D.A., Supak A.V. Qishloq xo'jalik agregatlari xamda ustanovkalarining elektrik jihozlari va avtomatlashtirilishi. – T.: O'qituvchi, 1980. – 432 b.
18. Atabekov V.B. Elektr tarmoqlari va kuch elektr qurilmalarini montaj qilish. – T.: O'qituvchi, 1995. – 184 b.
19. Sistema planovo-predupreditelnogo remonta texnicheskogo obslujivaniya elektrooborudovaniya selskoxozyaystvennix predpriyatij. – M.: VO Agropromizdat, 1987. – 191 s.
20. Jerve G.K. Promishlennie ispitanija elektricheskix mashin. – L.: Energoatomizdat, 1984. – 408 s.
21. Maxmudov D.N. Avtomobillarning elektr va elektron jihozlari. – T.: Istiqloq, 2000. – 204 b.
22. Dmitriev M.N. Traktor, avtomobil va kombaynlar elektr jihozlar-dan praktikum. – T.: O'qituvchi, 1990. – 208 b.
23. Sirix P.N. i dr. Texnicheskoe obslujivanie elektrooborudovaniya v selskom xozyaystve. – M.: Rosselxozizdat, 1980. – 346 s.
24. Ganelin A.M., Kostruba S.I. Spravochnik selskogo elektrika. – M.: Agropromizdat, 1988. – 304 s.
25. www.gov.uz– O'zbekiston Respublikasi hukumat portalı.
26. www.lex.uz– O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
27. <http://www.gov.uz/ru/section.scm?>
28. <http://www.uzbekenergo.uz/rus/>
29. <http://www.agro.uz/uzb/>
30. <http://www.intsyseurope.fr/ElectronicsWorkbench/facts.html>
31. <https://www.scadahacker.com/resources.html>

MUNDARIJA

KIRISH	3
Talabalarning tajriba ishlarini bajarish qoidalar	4
1 1-laboratoriya ishi.	
O‘zgaruvchan tok mashinasi chulg‘amlarining nuqsonlarini o‘rganish	5
2 2-laboratoriya ishi.	
O‘zgaruvchan tok mashinalari cho‘lg‘amlari va ularning ulapish sxemalari bilan tanishish	9
3 3-laboratoriya ishi.	
Asinxron elektr motorlarning stator chulg‘amlari va ularning ulanish sxemalari bilan tanishish	11
4 4-laboratoriya ishi.	
O‘zgarmas tok mashinasi cho‘lg‘ami nuqsonlarini o‘rganish	17
5 5-laboratoriya ishi.	
Ta’mirlash davridagi asinxron motorini nuqsonlarini aniqlash	21
6 6-laboratoriya ishi.	
Transformator nuqsonlarini aniqlash	24
7 7-laboratoriya ishi.	
Katta ta’mirlashdan keyin elektr mashinalarining sinov	28
8 8-laboratoriya ishi.	
Traktor o‘zgaruvchan tok generatori nuqsonlarini tekshirish	34
9 9-laboratoriya ishi.	
Lyuminessent lampalar va ishga tushirish jixozlarining nuqsonlarini tekshirish	41
10 10-laboratoriya ishi.	
Past kuchlanishli elektr jihozlarning nuqsonlarini o‘rganish va g‘altak cho‘lg‘amlarini qayta hisoblash	45
Tavsiya etilgan adabiyotlar	49

Yunusov Rustem Faikovich

ELEKTR USKUNALARNI TA'MIRLASH TEKNOLOGIYASI

fanidan tajriba ishlarini bajarish bo'yicha

USLUBIY KO'RSATMA

Muharrir:

М.Мустафаева

Musahhih:

М.Байзакова

Bosishga ruxsat etildi: 21.10.2022 yil. Qog'oz o'lchami 60/84 1/16.

Hajmi: 3,3 bosma taboq. 30 nusxa. Buyurtma № 0514.

TIQXMMI bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent-100000. Qori Niyoziy ko'chasi, 39.